

YANGI TUG'ILGAN CHAQALOQLARDA TUG'MA YURAK NUQSONLARI: ETIOLOGIYASI, KLINIK IFODASI VA DAVOLASH USULLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15653373>

Kimsanboyev Jamshidbek Jasurbek o'g'li

Qo'qon universiteti Andijon filiali,

Davolash fakulteti, 19-gurux talabasi.

Annotatsiya

Mazkur maqolada yangi tug'ilgan chaqaloqlarda uchraydigan tug'ma yurak nuqsonlarining etiologik omillari, klinik ko'rinishlari va davolash yondashuvlari yoritilgan. O'zbekiston bo'yicha klinik kuzatishlar asosida statistic ma'lumotlar keltirilib, diagnostika va davolashdagi muhim bosqichlar tahlil qilindi.

Tadqiqot asosida yurak nuqsonlari bilan tug'ilgan chaqaloqlarda eng ko'p uchraydigan shakllar va ularning vaqtida aniqlanishi bo'yicha samarali yondashuvlar aniqlangan. Jarrohlik va konservativ muolajalar natijasi, asoratlar va o'lim holatlariko'rsatkichlari bilan baholangan.

Kalit so'zlar

Yangi tug'ilgan chaqaloq, tug'ma yurak nuqsoni, diagnostika, echokardiyografiya, davolash, klinik kuzatuv, perinatal davr.

Kirish. Tug'ma yurak nuqsonlari yangi tug'ilgan chaqaloqlarda uchraydigan og'ir kasalliklardan biri bo'lib, o'lim va nogironlikning muhim sababi hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha har 1000 ta tug'ilgan chaqaloqdan kamida 8-10 tasida yurakning tuzilmaviy nuqsonlari aniqlanadi. Bu esa har bir tug'ruqxona va neonatologik markazda mazkur holatlarga tayyorlikni talab qiladi.

O'zbekiston sharoitida prenatal diagnostikaning rivojlanishi va neonatologiya xizmatlarining takomillashib borayotganiga qaramay, tug'ma yurak nuqsoni bilan bog'liq holatlar hamon dolzarbligicha qolmoqda. Mazkur maqola aynan ushbu muammo bo'yicha chuqur tahlilni maqsad qilgan.

Ishning maqsadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi - yangi tug'ilgan chaqaloqlarda uchraydigan tug'ma yurak nuqsonlarining etiologik omillarini aniqlash, klinik belgilari va davolash samaradorligini o'rganishdan iborat. Shuningdek, diagnostik jarayonni baholash orqali erta tashxis qo'yish imkoniyatlarini kengaytirish ham nazarda tutilgan.

Bu orqali sog'liqni saqlash muassasalarida ushbu kasalliklar bilan ishlash bo'yicha amaliy tavsiyalarishlab chiqilib, ixtisoslashgan markazlar faoliyatini yaxshilashga hissa qo'shish rejalashtirilgan.

Tekshirish materiallari va usullari. Ushbu ilmiy ish Toshkent pediatriya instituti klinikasining neonatologiya bo'limida 2023–2024 yillar davomida olib borilgan kuzatuv va tahlillarga asoslangan. Tadqiqot davomida 2500 nafar yangi tug'ilgan chaqaloq chuqur klinik va instrumental tekshiruvdan o'tkazildi. Ulardan 152 nafarida (6,08%) turli shakldagi tug'ma yurak nuqsonlari (TYN) aniqlandi. Tadqiqot guruhidagi chaqaloqlar yoshi tug'ilgan vaqtdan boshlab hayotining birinchi oyigacha bo'lgan muddatni o'z ichiga oldi. Tadqiqot ishtirokchilari shifokor ruxsati va ota-onalar roziligi asosida tanlab olindi.

Tashxislash uchun asosiy usullar sifatida fizikaltekshiruv (auskultatsiya orqali yurak shovqinlarini aniqlash), elektrokardiografiya, ko'krak qafasi rentgenografiyasi, va eng asosiysi – exokardiyografiya (EXO) qo'llanildi. EXO tekshiruvlari yuqori chastotali bolalar uchun moslashtirilgan zondlar yordamida bajarildi. Tekshiruvlar natijasida 41 ta (27%) holatda interventrikulyar septal defekt (IVSD), 32 ta (21%) holatda atrial septal defekt (ASD), 28 ta (18%) holatda ochiq arteriya kanali (OAK), 14 ta (9%) tetralogiya Fallo, 9 ta (6%) aortaning stenoz, 6 ta (4%) transpozitsiya, qolgan 22 ta (15%) esa kam uchraydigan aralash nuqsonlar (yurak kameralari gibrid displaziyasi, bir qopqoq yetishmovchiligi va boshqalar) aniqlandi. Shuningdek, har bir bemorning tug'ilish vaqti, og'irligi, APGAR balli, ona sog'ligi, homiladorlikda kuzatilgan xavf omillari va irsiy holatlar haqida ma'lumotlar yig'ildi.

Olingan natijalar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tug'ma yurak nuqsonlari bilan tug'ilgan 152 nafar chaqaloqning 88 nafari (58%) qiz bolalar, 64 nafari (42%) o'g'il bolalar bo'lib, qizlarda biroz ko'proq uchrashi kuzatildi. Vaqtdan oldin tug'ilgan (35–37 haftalik) chaqaloqlar orasida TYN uchrash chastotasi 8.4% ni tashkil etgan bo'lsa, to'liq muddatli (38 haftalik) tug'ilgan bolalarda bu ko'rsatkich 5.1% bo'lgan. Tug'ma nuqson aniqlangan bemorlarning 40.7% holatida yurakdagi shovqinlar chaqaloqning hayotining birinchi haftasida auskultatsiya orqali aniqlangan, qolgan 59.3% holatda esa klinik simptomlar – siyrak emish, dispnoe, sianoz va sustlik – orqali gumon qilinib, echokardiyografik tekshiruv orqali tasdiqlangan.

Davolash strategiyasi nuqson turi va og'irlik darajasiga qarab belgilanib, 97 nafar bemorga konservativ davo (diuretiklar, ACE ingibitorlari, kislorod terapiyasi), 38 nafariga esa yurak-jigar yetishmovchiligi bilan kechayotgan holatlar sababli jarrohlik aralashuvitavsiya etilgan. Qolgan 17 nafar bemor doimiy dinamik kuzatuv ostiga olingan. Jarrohlik o'tkazilgan 38 holatdan 2 tasida (5.2%) asoratli o'lim qayd etilgan bo'lsa, konservativ davo olganlarning 81.4%

holatidayurak faoliyati barqarorlashgani aniqlandi. Asoratlarsifatida o'pka gipertenziyasi (18%), yurakyetishmovchiligi (12%), arterial gipoksiya (9%) vaaritmiya (6%) hollari qayd etilgan. Bu natijalar yuraknuqsonining turi va tashxisning erta yoki kechqo'yilishi davolash muvaffaqiyatiga bevosita ta'sirko'rsatishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, mazkur natijalar mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Masalan, Toshmatova G.N. (2020) o'z izlanishlarida 1100 nafar yangi tug'ilgan chaqaloqichida 5.9% holatda TYN aniqlanganini, ularning 65% holatda tug'ilganining birinchi 10 kunida tashxis qo'yilganini ta'kidlagan. Ergashev D.J. (2021) tomonidan Andijon viloyatida olib borilgan 3 yillik kuzatuvda esa TYN holatlari har 1000 tug'ilishga 9.1 ni tashkil etgani, ayniqsa PDA va VSD nuqsonlari ustunlik qilgani qayd etilgan. Karimova Z.A. (2019) yuritgan kuzatuvlarda esa, O'zbekiston bo'yicha yurak nuqsonlari bilan bog'liq perinatal o'limlar 3.4% nitashkil etgani va bu holatlarning 80% da kech tashxis asosiy omil bo'lgani ko'rsatilgan. Bu faktlar bizning klinik tadqiqotlarimiz natijalari bilan uzviy mos keladiva O'zbekistonda TYN bo'yicha erta tashxis, skriningva mutaxassislar malakasi ustida ishlash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda tug'ma yurak nuqsonlari tez-tez uchraydigan va erta tashxis qo'yilmasa, og'ir asoratlar yoki o'limga olib keladigan holatlardandir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, vaqtida aniqlanib, to'g'ri davolash choralari ko'rilgan bemorlarda ijobiy prognozga erishish mumkin.

Shu bois quyidagilarni taklif etamiz: prenatal skrining dasturlarini kengaytirish, viloyat markazlarida echokardiyografiya uskunalari bilan jihozlash, pediattrlar va neonatologlar uchun yurak nuqsonlari bo'yicha malaka oshirish kurslarini muntazam o'tkazish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Soliyev A.S. "Pediatriya asoslari", Toshkent, 2020.
2. Madaminov I.T., Yusupova M.T. "Neonatologiyada zamonaviy yondashuvlar", Toshkent, 2021.
3. Karimova Z.A. "Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari", Toshkent tibbiyot akademiyasi, 2019.
4. O'zbekiston SSV - "Perinatal statistika hisobotlari", 2022.
5. Ergashev D.J. "Tug'ma yurak nuqsonlari: diagnostika va davolash", Andijon, 2021.

6. Toshmatova G.N. "Pediatriyada ultratovush diagnostikasi", Samarqand, 2020.
7. Xasanov O.M. "Kichik yoshdagi bolalarda yurak nuqsonlari", Buxoro, 2022.
8. Respublika Neonatologiya markazi "Yangi tug'ilganlar reanimatsiyasi", Toshkent, 2023.